

“Birinchi rezinotexnika zavodi” MChJning 100% ulushi Rossiyaning “Tatneft” OAJga sotilganligi yuzasidan rasmiy ma’lumot

// 27.01.2023

<https://uzkimiyosanoat.uz/oz/press/news/brz-rasmiy-malumot>



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-oktabrdagi PQ-388-son qaroriga asosan “Birinchi rezinotexnika zavodi” MChJning 100% ulushi katta to‘rtlikka kiruvchi (The Big Four) “Deloitte” kompaniyasi tomonidan o‘rganib chiqildi va barcha kredit majburiyatlari hamda mavjud qarzdorliklar inobatga olingan holda “Deloitte” kompaniyasi tomonidan zavod qiymati 843 mlrd so‘mga (ekv. 75,0 mln AQSh dollari) baholandi.

Ma’lumot uchun: 31.12.2022 holatida “Birinchi rezinotexnika zavodi” MChJning 91,8 foiz ulushi “O‘zbekimiyosanoat” AJga va 8,2 foiz ulushi “O‘zbekimiyosanoat” MChJga tegishli edi. Shuningdek, mazkur korxonaning jami 153 mln AQSh dollariga teng kredit majburiyatlari hamda qarzdorligi mavjud.

2022-yilning 1-2-dekabr kunlari Samarqand shahrida o‘tkazilgan O‘zbekiston-Rossiya biznes-forumi doirasida olib borilgan muzokaralar natijasiga ko‘ra Rossiyaning “Tatneft” kompaniyasi bilan “Birinchi rezinotexnika zavodi” MChJning 100 foiz ulushini mavjud barcha kredit majburiyatlari va qarzdorliklarni o‘z zimmasiga olgan holda, kelgusida korxonada yangi turdagi rezinotexnika mahsulotlarini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish sharti bilan 80,0 mln AQSh dollariga sotib olinishi yuzasidan kelishuvga erishildi.

2023-yilning 20-yanvar sanasida "White & Case" xalqaro yuridik kompaniyasi ishtirokida "Birinchi rezinotexnika zavodi" MChJni Rossiyaning "Tatneft" kompaniyasiga sotish yuzasidan "O'zkimyosanoat" AJ, "O'zkimyoimpeks" MChJ hamda "Tatneft" OAJ o'rtasida oldi-sotdi shartnomasi imzolandi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish lozim, ko'plab OAV va ijtimoiy tarmoqlarda "Birinchi rezinotexnika zavodi" MChJ Rossiyaning "Tatneft" OAJ kompaniyasiga 826 million so'mga sotilganligi yuzasidan haqiqatga to'g'ri kelmaydigan xabarlar e'lon qilinmoqda. Bunga esa www.openinfo.uz saytiga noto'g'ri raqamlar aks etgan ma'lumotlar joylashtirilganligi sabab bo'lgan. Hozirda www.openinfo.uz saytiga ma'lumotlarni joylashda yo'l qo'yilgan xatolik bartaraf etilib, to'g'ri ma'lumotlar joylandi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati